XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Urganch tumani, Mustaqillik ko`chasi, 1-uy, +998 62 352 1818, 220500

2025-yil 20-sentabr VII-13-96-12-173-K/25 Urganch tumani

Urganch tumanidagi qabristonlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Urganch tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 21-avgustdagi 05-19-14269-sonli yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspertiza xulosasi va tuman hokimligining 3 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlash bo‘yicha taklifi ma’qullansin.

2. Urganch tumanidagi geografik obyektlar nomlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

Qarorning ilovasidagi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda, tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, tuman geografik ob’ektlarga nom berish to‘g‘risidagi masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosariga:

bir hafta muddatda tumandagi qabristonlarning yangi nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuvida, peshlavhalarga yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi a’zolari, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi hamda mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga:

bir hafta muddatda tumandagi qabristonlarning yangi nomlari bo‘yicha aholi o‘rtasida keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish va tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb sayti (N.Masharipov)ga joylashtirilsin hamda “Urganch haqiqati” gazetasi (K.Urazimbetov)da rasmiy e’lon qilsin.

7. Mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etilsin.

8. Tuman moliya bo‘limi (R.Sabirov) qaror ijrosini moliyalashtirish bo‘yicha 3 kun muddatda tuman hokimligiga taklif kiritsin.

9. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

10. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

SULTANOV
GAYRATJON
PO‘LATOVICH

Xalq deputatlari Urganch tumani Kengashining
2025-yil 20-sentabrdagi
VII-13-96-12-173-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Urganch tumanidagi geografik obyektlar nomlari

№	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Geografik obektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Ekspert komissiyasinng xulosasi
Qabristonlar					
1.	Qabriston	Shohidonlar mahallasi	Nomsiz	Duzloq bobo Shohidon	**Shohidon**-“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida me’yorlashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Chakkako‘li mahallasi	Nomsiz	Pir Ahmad Husin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq..
3.	Qabriston	Chakkasholikor	Nomsiz	G‘oyib ota Chakkasholikor	**Chakkasholikor**-“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida me’yorlashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq..